



KICHIK MAK TAB YOSHIDAGI BOLALAR NUTQINI O'YIN ORQALI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

Muxammadjonova
Xadichaxon Xusanjon qizi

Qo‘qon davlat pedagogika instituti Psixologiya
kafedrasi stajyor-o’qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada kichik maktab yoshidagi bolalarning psixologik rivojlanishi va ta’lim olish jarayonida bola nutqini o’yinlar orqali rivojlanirish, nutqni rivojlanirishda yuzaga keladigan psixologik qiyinchiliklar hamda ularning yechimlari, bolalar nutqini rivojlanirishda psixologik usullardan samarali foydalanish haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Maktab, o‘quvchi, diqqat, idrok, tafakkur, nutq, faoliyat, o’yinlar.
KIRISH.

Bugungi kunda mamlakatimizda barkamol avlodni tarbiyalash uchun, eng avvalo, qulay tashkiliy – huquqiy sharoitlar yaratildi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan mazkur sohadagi islohotlar izchil davom ettirilib, maktabgacha ta’lim muassalari va boshlang’ich ta’lim tarmog’ini hozir zamon talablari standartlari asosida rivojlanirish, ularni rekonstruksiya va modernizatsiya qilishga qaratilayotgan e’tibor zamirida ham kelajagimiz egalarining hech kimdan kam bo’lmay ulgayishlari hamda buyuk ajdodlarga munosib voris bolib voyaga yetishtirishlarini ta’minalashdek ezgu maqsad mujassam.

“Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da’vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan”, deya ta’kidladi O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev. Shuning uchun ham ta’limning barcha bosqichlarida ona tilidan ta’lim berish, ona tili ta’limiga qo‘yilgan davlat talablaridan kelib chiqgan xolda amalga oshiriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Nutqiy faoliyat ta’lim ob’ekti sifatida til vositasida shaklantirilgan va ifodalangan, muloqot jarayonida insonning kommunikativ-bilish ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan fikrlarni (irodani, hissiyotlar ifodasini) berish va (yoki)

qabul qilishning faol, aniq maqsadga yo‘naltirilgan, motivatsiyalangan, predmetli (mazmunli) jarayonidir.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda nutqiy faollikni shakllantirish masalalarini nutqiy faoliyat nazariyasi asosida tadqiq etish bugungi kun uchun dolzarb va ahamiyatli hisoblanadi. Nazariy va amaliy ishlar shundan dalolat bermoqdaki, nutqiy faoliyat motivatsiyasini boyitish o‘quvchilar nutqini rivojlantirish borasidagi ishlarning samaradorligini oshiradi.

Kichik maktab yoshi davrida o‘quvchilarning asosiy faoliyati o‘yin bo‘lib, u orqali o‘quvchilarda shaxs sifatlari hamda nutqiy faoliyat yanada shakllanadi. O‘yin qadimdan tarbiyaviy zarurat hisoblangan, ajdodlarimiz faoliyatidan biri bo‘lib, o‘yin orqali ovchilik, dehqonchilik ishlari aks ettirilgan, kattalar mehnatiga taqlid qilish o‘yin orqali amalga oshirilgan. Tarixiy manbalarda nafaqat o‘quvchilar, kattalar, amaldorlar ham nard, shatranj o‘yinlarini bilishi lozimligi aytildi.

Demak o‘yin uzoq tarixga ega bo‘lib, jamiyat hayotida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan, kishilarning mehnat qilish istagi orqali yuzaga kelgan. Shuning uchun ham o‘yin faoliyati o‘quvchi avval kattalarga taqlid qilishidan biror narsani, buyumni o‘ynashdan boshlanib ijtimoiy hodisa hisoblanadi.

K. D.Ushinskiy fikricha o‘yin o‘quvchilarni mehnatga tayyorlaydi. Ijtimoiy hayotning o‘zgarishi bilan o‘yin ma’lum maqsadga yo‘naltirilgan ongli faoliyatga aylanadi, ya’ni o‘quvchilarda o‘quv-biluv faoliyati shakllana boradi, o‘quvchilarda bilimga intilish kuchayadi.

Demak, o‘yin boshlang’ich sinfdagi o‘quvchilar shaxsini shakllantirish, nutqiy faoliyatni yanada rivojlantirish tevarak-atrof haqidagi tasavvurlarni boyitish, jismonan sog‘lomligi aqliy jihatdan rivojlanishini ta’minlovchi omil bo‘lib hisoblanadi. Shuning uchun ham o‘yin ilk yoshdan boshlab o‘rgatiladi.

METODLAR

Manbaalarda keltirilishicha ona tili ta’limiga qo‘ylgan talablardan biri kichik maktab yoshi davridagi o‘quvchilar nutqini o‘stirish, o‘z fikr, istagini aniq, tushunarli, mazmunli bayon etishga o‘rganishi, o‘quvchilar so‘z boyligini oshirish kabilardan iborat. Boshlang’ich ta’limning oxirida 3000 dan ortiq so‘zni bilish, tushunishi va nutqda qo‘llash malakalarini shakllantirishdan bugungu kunning muhim vazifasidir. Chunki yoshlikdan boshlab o‘quvchilarni fikrlashi, tafakkuri, ona tilida o‘z fikrini bayon etishi, ona tilini amaliy o‘rganishdan iborat bo‘lib, o‘quvchi shaxsini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Boshlang’ich ta’limda ona- tilini o‘rgatish o‘quvchilar nutqini o‘stirish, tovush, so‘z, gapni farqlash, ularni aniq va to‘g‘ri talaffuz qilishga o‘rganishi bilan amalga oshiriladi, u quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. O‘quvchilar so‘z boyligini oshirish, lug‘atini boyitish.
2. Boshlang’ich sinfdagi o‘quvchilar bog‘lanishli nutqini o‘stirish, nutqning aloqa vositasi ekanligini amaliy o‘rganish, diologik va monologik nutqni shakllantirish.
3. Nutqning grammatik jixatdan to‘g‘ri rivojlantirish, o‘quvchilar nutqidagi xatolarni bartaraf etish.
4. Nutqning tovush tomonini tarbiyalash, nutq tovushlari, so‘z, gapni to‘g‘ri aytishga o‘rgatish.

5. Boshlang'ich ta'linda badiiy adabiyotlar bilan tanishtirish, ularda badiiy nutqni o'stirish, ifodali, obrazli nutqni shakllantirish.

6. Boshlang'ich ta'linda tevarak - atrof bilan tanishtirish, ularda tevarak – atrof, ona Vatanga muhabbatni, vatanparvarlikni tarbiyalash, milliy mafkura qirralarini yoshiba mos xolda singdirish.

Ushbu vazifalar boshlang'ich ta'linda o'quvchilar nutqini o'stirish, aniq, ravon so'zlashga o'rgatish, ravon, to'g'ri, mazmunli so'zlashishini tarbiyalaydi.

NATIJA

O'yin kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning asosiy faoliyat turi bo'lib, o'yin o'quvchi shaxsini shakllantirishi, o'quv, mehnat faoliyatini, kishilar, tengdoshlari bilan munosabatlarini tarbiyalovchi asosiy omildir. Shu bois o'yin qadim zamonlardan buyon tarbiya metodi bo'lib kelgan. Chunki o'yin o'quvchilarning mustaqil faoliyati bo'lib, o'quvchilar nutqiy faoliyatini tashkil etishning asosiy shaklidir. Shu bois o'yin tarbiya vositasi bo'lishi bilan birga o'quvchilarga ta'limgartarbiya berish metodi bo'lib hisoblanadi.

Olib borilgan kuzatish natijalariga ko'ra, o'yin kichik maktab yoshi davrida asosiy faoliyat bo'lib u o'quvchi shaxsini, uning qiziqishlarini, tevarak-atrof haqidagi tasavvurlarini, nutqining rivojlanishini ta'minlaydi. Ya'ni o'yinda o'quvchilar jismoniy tomondan rivojlanadi, ularda faollik ortib boradi.

Shuningdek o'yin darslarda qo'llanilishi tufayli o'quvchilar tafakkurini, hayoli, diqqatini rivojlantiradi. O'quvchilarning ijodiy nutqini o'stiradi. Shuning uchun ham o'yin nutq o'stirish metodi bo'lib, tevarak-atrofdagi narsa, buyumlar, voqeaxodisalar haqidagi bilimlar o'yin orqali o'quvchilarga o'rgatiladi. Bu esa o'quvchining yosh xususiyatiga mos bo'lishi, qiziqarli bo'lishi, aqliy faoliyatini oshirishga hizmat qilishi lozim. Shuning uchun ham o'yin mustaqil faoliyat bo'lib, o'yinda o'quvchilar o'z tengdoshlari bilan o'ynaydilar, tevarak-atrofdagi hayotni, kishilar faoliyatini, ularning o'zaro munosabatini aks ettiradilar, o'yining ijodkori o'quvchilar hisoblanadi. Ya'ni o'quvchilar o'z ixtiyorlari bilan o'yinni turlicha tashkil etadilar.

Masalan, ijodiy o'yinlarda o'quvchilar o'z taffakuri bilan yangi o'yin yaratishi mumkin yoki biror buyumni, o'yinchoqni yasash, uycha qurish kabi faoliyatni bajaradilar, o'quvchilarda aql—idrok hayol orqali yaratuvchanlik faoliyati ijodi, o'zaro fikrashi, maslahat qilishi, bir fikrni qo'llab quvvatlashi kabi nutqiy faoliyat shakllanadi, o'zaro munosabat, ahillik, bir maqsad sari intilish o'sib boradi, ularda bir—birini fikrini tahlil qilish kabi do'stona munosabat shakllanadi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ta'limiy o'yinlar ham o'zining mohiyati, mazmuni jihatidan o'qitishning ilg'or usul-shakllaridan bo'lib, ulardan mashg'ulotlar jarayonida foydalanish, o'quvchilarning faolligi, mustaqillik, tashabbuskorlik, tez fikrlay olishlik, o'z bilimiga ishonch, izlanuvchanlik va topqirlik kabi sifatlarning shakllanishi va tarbiyalanishiga olib keladi.

Muhimi, ularda o'qish-bilish motivlarining rivojlanishiga imkon beradi. Shunga ko'ra, ta'limiy o'yinlarni pedagogik nuqtai-nazaridan shartli ravishda: ta'lim beruvchi, mashq qildiruvchi va umumlashtiruvchi; bilishga oid, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi;

ijodiy shakllarda guruhash mumkin. Bu o'rinda shuni ham aytib o'tish joizki, har qanday usul, shakl, vositaning shu jumladan ta'limiy o'yinlarning mashg'ulotlar jarayonidagi samarasi ulardan maqsadli holda o'z o'rnida foydalanishni taqozo etadi.

REFERENCES

1. SH.M.Mirziyoyev Buyuk kelajagimizni mard va olidianob xalqimiz bilanbirga uramiz. – T.: O'zbekiston, 2017.
2. Rasulova M., Abduraxmonova X. va boshqalar. Boshlang'ich sinfdagi o'quvchilar ta'lim- tarbiyasiga qo`yiladigan davlat talablari. T., O'z PFITI, 2000.
3. Ibragimova Sh.G., Muxammadjonova X.X. // SCIENTIFIC PREGRESS. Volume 2, 2021. Pp, 501-505.
4. Rahmonova Go'zal Valiyevn. Kichik maktab yoshida o'quv faoliyatini shakllantirish jarayonlari // Yangilanayotgan O'zbekiston taraqqiyotida iqtisodiy fanlarni o'qitishning dolzarb masalalari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. 16.06.2023. 211-214 bet.
5. Жураева, III. С. Мактаб ёшгача болаларда ўзи-ўзи англаш ривожланишнинг психологик омиллари // Молодой учёный. — 2022. — № 22 (417). — С. 675-677. — URL: <https://moluch.ru/archive/417/92418>
6. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Rh71JaMAAAAJ&citation_for_view=Rh71JaMAAAAJ:Se3iqnhoufwC
https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Rh71JaMAAAAJ&cstart=20&pagesize=80&citation_for_view=Rh71JaMAAAAJ:Tyk-4Ss8FVUC